

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA “RES JUDICATA” TAMOYILINI QO’LLASH MASALALARI

Xudoyberdiyeva Shahnozabonu Umid qizi

Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19798647>

Hozirgi globallashtirilgan zamonda, xalqaro tijorat arbitraj nizolarini tezkor va samarali hal qilish uchun uning yakuniyligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham res judicata tamoyili arbitraj qarorlarining prekluziv ta’sirini belgilovchi va oldin ko’rilgan masalalarni qayta ko’rib chiqishni oldini oluvchi huquqiy prinsip sifatida e’tiborga loyiq.

Res judicata tamoyili amaliy jihatdan ham dolzarb mavzu, chunki xalqaro tijorat arbitrajida qarorlarning yakuniyligini belgilab, tomonlarning xavfsizligini ta’minlabgina qolmay, arbitraj qarorlarini ijro etish jarayonini ham soddalashtiradi. Bundan tashqari O’zbekistonda res judicata tamoyilining qo’llanilishi bilan bo’g’liq tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi va bu orqali milliy huquqiy tizimni Xalqaro standartlarga moslashishga yordam beradi.

Tadqiqot obyekti – Xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal etish va u bilan bo’g’liq munosabatlardir. Jumladan, Arbitraj qarorlarining yakuniyligi va prekluziv ta’siriga oid munosabatlar.

Tadqiqot predmeti – Res judicata tamoyilining xalqaro tijorat arbitrajida qo’llanilishi va uning prekluziv ta’siri. Shuningdek, tadqiq qilinayotgan masala sifatida arbitraj qarorlarining yakuniyligi, bir xil tomonlar o’rtasida hal qilingan nizoni qayta ko’rib chiqishini oldini olish mexanizmlari va bu tamoyilni turli huquq tizimlarida qo’llanilishini tahlil qilib, O’zbekistonda res judicata tamoyilining qonuniy mazmuni, amaliyotini va rivojlanish istiqbollari ko’rib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi – Xalqaro tijorat arbitrajida res judicata tamoyilining nazariy va amaliy jihatlarini o’rganish, arbitraj qarorlarining yakuniyligini, prekluziv ta’sirini aniqlab, O’zbekistonda bu tamoyilning qo’llanilishi va rivojlanish istiqbollari belgilashdir.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarda iborat:

– Res judicata tamoyilining nazariy va amaliy asoslarini aniqlab, huquqiy mohiyatini tahlil qilish.

– Chet el tajribasini ya’ni Shveysariya, Fransiya, AQSH huquq tizimlarida res judicata tamoyilini qo’llanilishini o’rganib xususiyatlarini solishtirish;

– Xalqaro tijorat arbitraj amaliyotida yuzaga keladigan muammolarni o’rganib tahlil qilish;

– O’zbekistonda res judicata tamoyilining qonuniy asoslari, sud amaliyoti va rivojlanish istiqbollari o’rganish;

– Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, res judicata tamoyilining samarali qo’llash bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Res judicataning asosiy maqsadi huquqiy barqarorlikni ta’minlash, qarama-qarshi qarorlar olishdan iboratdir. Arbitraj amaliyotida res judicata juda ham muhim, chunki, arbitrajning asosiy ustunligi qarorlarining yakuniyligi va tezkor hal qilinishidir.

Res judicata prinsipining asosiy vazifasi nizolarni qayta ko’rib chiqishdan himoya qilish, sud va arbitraj resurslarini tejash, qarorlarning yakuniyligi va ishonchligini ta’minlashdir. Shu bilan birga, res judicata taraflarning huquqiy barqarorligini oshiradi va sud qarorlari yoki arbitraj mukofotlarining ijrosini kafolatlaydi.

Chet el tajribasini tahlil qilishim natijasida, Fransiyada res judicata tamoyili keng qo’llaniladi va qonunchiligida aniq mezonlar bilan belgilangan.

Fransiyada, taraflar, talab va faktlar bir xil bo'lgandagina oldingi qarorlar bilan bo'g'liq masalalarni qayta ko'rib chiqmaslikni ta'minlaydi. Bundan tashqari Fransiyada arbitraj qarorida asosiy qismida res judicata qo'llanilishi bilan ajralib turadi va bu Fransiyada res judicata bo'yicha aniq mezonlar belgilab qo'yilganidan dalolatdir.

Shveysariyada esa Fransiyadan ham qat'iy qoidalar asosida qo'llaniladi va Shveysariya fuqorolik kodeksi arbitraj qarorlarida res judicatani qo'llash muhimligini aniq belgilaydi. Arbitraj qarorlari yakuniy va majburiy, qarorlardan kelib chiqqan noroziliklar qayta ko'rib chiqilmaydi ya'ni, Shveysariyada preclusive effectni sudlar tomonidan ta'minlanishi majburiy.

Chet el tajribasini kelib chiqib, res judicata prinsipi samarali qo'llash uchun arbitraj mukofotlarining yakuniyligi va taraflarning huquqlari to'liq himoyalangan bo'lishi zarur. Shu bilan birga, har bir yurisdiksiyada res judicata qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular xalqaro arbitraj amaliyotida ham hisobga olinadi.

O'zbekiston qonunchiligida esa res judicata tamoyili aniq mezonlar bilan belgilab qo'yilmagan, bu esa arbitraj qarorining yakuniyligini ta'minlashni murakkablashtiradi.

Shuningdek, arbitraj qarorlarida res judicata prinsipi qanday qo'llanilishi bilan bo'g'liq aniq mezonlar mavjud emas. Arbitraj qarorlarida res judicatani qanday qo'llash bilan bog'liq aniq mezonlar mavjud emasligi natijasida, qarorlarning yakuniy va majburiyligini belgilash bilan bog'liq muammolar mavjud. Qonunchilikka res judicatani aniq mezonlarini kirgizish orqali esa, res judicata prinsipi samarali ishlashiga arbitraj qarorlarini ijro etish va terkor hal bo'llishiga to'siq bo'lmaydi. Bundan tashqari, res judicatani qonunchilikka kirgizilishi natijasida sud yuklamalari ham kamayishiga sabab bo'ladi.

Res judicata prinsipi taraflar o'rtasidagi nizolarni qayta ko'rib chiqishdan himoya qiladi, sud va arbitraj resurslarini tejashga yordam beradi, qarorlarning yakuniyligi va ishonchligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, res judicata prinsipining samarali qo'llanilishi arbitraj mukofotlarini ijro etish va nizolarni tezkor hal qilish imkoniyatini oshiradi.

Taklif sifatida esa, res judicata tamoyilini milliy qonunchiligimizga aniq mezonlar bilan kirgizish kerak. Res judicata aniq mezonlari va tizimli ravishda

kirgizilishi natijasida O'zbekiston xalqaro arbitraj maydonida o'z o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, res judicatani ta'minlash ilgari ko'rib chiqilgan masalalarni qayta ko'rmaslikka va sud yuklamalari kamayishiga, bir xil faktli ishlarda ikki xil natija bo'lmasligini kafolatlaydi.

Chet el tajribasida, xususan Fransiya va Shveysariyada res judicata qat'iy mezonlar bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston ham arbitraj tizimini xalqaro standartlarga moslashishi uchun res judicata haqida qonunchilikda aniq mezonlar belgilashi kerak. Res judicata prinsipining samarali tatbiqi nafaqat taraflar uchun ishonch va huquqiy barqarorlik yaratadi, balki arbitraj tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.